

**"INSON QADRI VA MANFAATLARI UCHUN" DEGAN EZGU ŽOYA ASOSIDA  
DEMAKRATIYA VA ADOLAT TAMOYILLARI MUSTAHKAMLASHGA QARATILGAN  
TUB ISLOHOTLAR ÖZBEKISTON UCHUN DOIMO USTUVORDIR**

**Ziyambetov Damir Abdiraxmanovich**  
*Fuqarolik ishlari bo'yicha Beruniy tumanlararo sudining sudyasi*

**Annotaciya:** *Bu maqolada inson manfaati, qadr-qimmati va uning huquqlarini ta'minlashga qaratilgan g'oyalar aks etgan.*

**Kalit so'zlar:** *demokratlashtirish, qadriyatlar mezioni, jamiyat, davlat, taraqqiyot strategiyasi*

**Аннотация:** В данной статье отражены идеи, направленные на обеспечение интересов, достоинства и прав человека.

**Ключевые слова:** демократизация, критерии ценностей, общество, страна, стратегия развития

Inson qadri – odam zotining Allohning eng buyuk mo'jizasi sifatida ulug'lanishi, har tomonlama munosib qadr-qimmat topishini anglatadigan tushuncha. Inson uchun qadriyatlar mezonini anglashda dastlab oila muhiti, ota-onasiga, qarindosh-urug', o'qituvchilar muhim o'rinni tutadi. Aynan ana shu omillar negizida inson kamol topib boradi. Insonning butun umri o'zida shaxsiy qadriyatlarni takomillashtirish, o'z qadrini kamolga yetkazish, jamiyat, zamonda sodir bo'layotgan o'zgarishlar qadrini anglashga intilishdan iboratdir.

Xalq- davlat mavjudligining birdan bir manbai. Öz fuqarolari xohish-istaklaklarini amalga oshirish va ularning qonuniy manfaatlarini ta'minlashga xizmat qiluvchi davlat qudratli bõladi hamda jahon miqiyosida hurmat qozonadi. Inson- davlat va jamiyat uchun maqsadga erishish vositasi emas, aksincha, ana shu maqsadning bosh mazmuni va manbai hamda eng oliy qadriyat bõlishi lozim. Biz barpo etayotgan Yangi Özbekiston uchun inson qadri va xalq manfaati hamma narsadan ustundir.

Inson manfaati - ijtimoiy manfaat shakllaridan biri, jamiyatdagi özgarishlar va taraqqiyotning asosiy maqsadini insonga yõnaltirish, inson haq-huquqlari ustuvorligini ta'minlashni anglatadigan tushuncha. Inson manfaatlari, inson ehyiyolari, huquq va erkinliklarining ustuvorligini, uning eng katta boylik sifatida jamiyatdagi alohida örni va ahamiyatini ta'minlash, jamiyat davlat va inson örtasidagi özaro munosabatlarni oqilona yõlga qo'yish tamoyillariga tayanadi. Ma'lumki, 1997-yil yurtimizda "Inson manfaatlari" yili deb e'lon qilindi. Inson manfaatlari yilda inson omiliga yanada katta ahamiyat berildi. Keyingi yillarga nom berish va mamlakatimiz uchun ustuvor yo'nalishni belgilab olishda ham, avvalo, inson manfaatlari ustuvor masala sifatida e'tiborga olinmoqda. Yangi O'zbekiston "Inson qadri ustuvor bo'lgan jamiyat va xalqparvar davlat" degan muhim g'oya negizida barpo etilmoqda.

Davlatimiz rahbari belgilab bergen bu ulug'vor maqsad asosida fuqarolar yangidan-yangi islohotlarning haqiqiy muallifiga aylanib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2022-yilni "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili" deb nomlanishi ham bunga misol bõla oladi.

Òzbekistob Respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoyevning BMT bosh assambleyasining 78- sessiyasida mazkur nutqdagi ilgari surilgan yõnalishlar Markazi Osiyo, qolaversa, jahon hamjamiyati oldida turgan dolzarb masalalardandir. Jumladan, sammitda davlatimiz rahbari tomonidan "Inson qadri va manfaatlari uchun " degan ezgu ûgo asosida demokratiya va adolat tamoyillari mustahkamlashga qaratilgan tub islohotlar olib borilayotganini alohida qayd etdi. Bugungi kunda yurtimizni rivojlantirish, inson qadrini ulug'lash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ko'plab ijobiy natijalarga erishildi.

Mamlakatimizning porloq kelajagiga yo'naltirilgan, yurtimizni rivojlantirish strategiyasining amaliy dasturi bo'lgan "Harakatlar strategiyasi" tõgrisidagi Farmonni imzolanishi ham bu borada amalga oshirilayotgan ishlarning mantiqiy davomi bo'ldi. 5 ta ustuvor yo'nalishlar va 100 ta maqsaddan iborat mazkur Farmon mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarni jadallashtirish bilan birga fuqarolarga yangi-yangi imkoniyatlarni yaratib bermoqda.

Islohotlar markazida, eng avvalo, inson qadrini yuksaltirish, aholining turmush farovonligini oshirish, xalqimizni rozi qilishdek oliy maqsad mujassam bundan tashqari Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining hayotga tizimli va izchil tatbiq etilishi demokratik islohotlarni yangi sifat bosqichiga olib chiqmoqda. Bu, birinchi o'rinda, "Inson qadri uchun" degan ustuvor tamoyilni to'la ro'yobga chiqarishni nazarda tutadi.

Qayd etish lozimki, "inson qadri" — fuqarolarning tinch va xavfsiz hayotini, asosiy huquq va erkinliklarini, bosqichma-bosqich munosib turmush sharoitini ta'minlash va zamonaviy infratuzilmani yaratish, mamlakatning har bir fuqarosi uchun malakali tibbiy xizmat ko'rsatish, sifatli ta'lif, ijtimoiy himoya va sog'lom ekologik muhitni yaratish demakdir.Bunga, eng avvalo, "Yangi O'zbekiston — xalqchil va insonparvar davlat" g'oyasi va "inson — jamiyat — davlat" tamoyilini hayotga faol tatbiq etish, Prezident, parlament va hukumat o'rtasida vakolatlarni aniq taqsimlash, hokimiyatlar bo'linishi tizimida o'zaro tiyib turish va muvozanatni mustahkamlash, erkin va adolatli fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, zamonaviy xalqaro hamjamiyatda o'zining munosib o'rnini topish orqali erishiladi. [1]

2022-yil 20-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llangan Murojaatnomada ushbu ustuvor maqsad yana bir bor ta'kidlandi. Joriy 2023 yilga yurtimizda "Insonga e'tibor va sifatli ta'lif yili" deya nom berildi. "Biz O'zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining markazida inson va uning manfaatlarini ta'minlashni ustuvor vazifa etib belgilandi.. Bu siyosat bir yil bilan cheklanib qolmasligi, doimo bardavom bo'lishi barchamizga ayon. Shu yurtda yashayotgan har bir insonning tinch va baxtli hayot

kechirishi, uning sog'lig'i joyida bo'lishi, yaxshi ta'lim olishi, oilasini tebratishi uchun qanday sharoit kerak bo'lsa, hammasini yaratib berishga harakat qilyapmiz va bu yo'ldan aslo to'xtamaymiz", -deb ta'kidladi davlatimiz rahbari.

Hozirgi davrda har qaysi odamning qadri – avvalo, uning tabiatga, tashqi olamda ro'y berayotgan jarayonlarga, bu jarayonlardagi o'rni va faoliyatiga, turli irq, millat, ijtimoiy qatlamlarga mansub bo'lgan, rang-barang maqsad va qadriyatlarga intiladigan kishilarga, o'ziga, oila, turmush, jamoa va jamiyatdagi mavqeiga nisbatan munosabatida yaqqol ko'rindi. Shuni aytish joizki, bugun mamlakatda olib borilayotgan islohotlarning bosh mezoni —adolatlilik, inson huquq va manfaatlari ustunligini ta'minlashdir. O'z navbatida, yangilangan konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarda mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini takomillashtirish va amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish talab etilmoqda. Xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha xohish-irodasini ro'yobga chiqarish, har bir fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo'g'iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlash asosiy maqsaddir.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 1-moddasida: "Hamma odamlar o'z qadr-qimmati hamda huquqlarida erkin va teng bo'lib tug'iladilar", deb qayd etilgan. [2] Buni biz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi muqaddimasidanoq "O'zbekiston xalqi inson huquqlariga va davlat suvereniteti g'oyalariga sodiqli.gini tantanali ravishda e'lon qilib" [3] degan so'zlardan boshlanishidan ko'rishimiz mumkin. Ayniqa Asosiy qomusimizning 13-moddasida "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi" deb mustahkamlanishi davlat, uning organlari, mansabdar shaxslar faoliyatining asosiy maqsadi va yo'nalishlarini yaqqol ifoda etdi.

Òzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 8-moddasida belgilanganidek, "O'zbekiston xalqini, millatidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi" [4]. Bugungi kunda mamlakatdagi fuqarolarning manfaatlari ko'zlangan har bir jabhasida ulkan o'zgarishlar, islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqa shu kunlarda Bosh Qomusga, ya'ni, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar shu bilan birga yangi moddalarning qo'shilayotganligi bular barchasi inson qadri uchun qilinayotgan ishlar demakdir.

Mamlakatda ehtiyojmand oilalar, ayollar va yoshlar bilan ishslash bo'yicha yangi tizim joriy etilib, "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" dagilar bilan manzilli ishslash yo'lga qo'yildi. Aholining kam ta'minlangan va zaif qatlamlarini ijtimoiy yordam tizimiga kiritish va ularning mehnat bozoridagi ishtirokini kengaytirish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tizimida muntazam ishlar olib borilmoqda. Xulosa órnida aytib

o'tish kerak, bugungi kundagi har bir islohot negizida inson manfaati, qadr-qimmati va uning huquqlarini ta'minlashga qaratilgan ulug' maqsad borligini kõrishimiz mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Sh.Mirziyoyev "Inson qadri, uning huquq va erkinliklari" nomli kitobi
2. Inson huquqlari umumjahon deklaraciysi
- 3.4. Demokratlashtirish va inson huquqlari jurnali